

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA PORTRET JANRINI O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

UrDPI san'atshunoslik kafedrasi o'qituvchisi

Baltayeva Halima To'rabayevna

baltayevaxalima@gmail.com

UrDPI san'atshunoslik kafedrasi o'qituvchisi

Otaxanova Nodira Jumanazarovna

nodiraotaxonova1@gmail.com

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 2-bosqichi talabasi

Bobojonova Bonu Oybek qizi

bonubobajanova@gmail.com

Annotatsiya: maqolada tasviriy san'at darslarida portret janrini o'rgatish metodikasini takomillashtirish masalasi muhokama qilinadi. Portret janri, tasviriy san'atning asosiy qismi hisoblanadi va o'quvchilarga insonnin xarakterli qiyofasi, shakllarini va ruhiyatini ifodalovchi sifatida o'rgatiladi. Bu maqola mavzu tushunchasi, metodlar va amaliyot yondashuvlari, dars materiallari tahlil qilinadi. Ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanib, tasviriy san'at darslarida portret janrini o'rgatishda eng samarali metodikalarni takomillashtirish uchun tavsiyalar beriladi.

Аннотация: в статье рассматривается вопрос совершенствования методики преподавания портретного жанра на уроках изобразительного искусства. Жанр портретной живописи является основной частью изобразительного искусства и преподается студентам как изображение характерного образа, формы и духа человека. В данной статье анализируется понятие предмета, методы и практические подходы, учебные материалы. Используя результаты научных исследований, даются рекомендации по совершенствованию наиболее эффективных методов преподавания портретного жанра на занятиях изобразительным искусством.

Abstract: the article discusses the issue of improving the methodology of teaching the portrait genre in fine arts classes. The genre of portraiture is the main part of fine art and is taught to students as representing the characteristic image, forms and spirit of a person. This article analyzes the concept of the subject, methods and practical approaches, teaching materials. Using the results of scientific research, recommendations are given to improve the most effective methods of teaching the portrait genre in fine art classes.

Kalit so'zlar: metod, visual ma'ruza, interfaol, individual, metodika, konstruktiv, professional.

Ключевые слова: метод, визуальная лекция, интерактивный, индивидуальный, методический, конструктивный, профессиональный.

Keywords: method, visual lecture, interactive, individual, methodology, constructive, professional.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayoni, xususan, tasviriy san'atni o'qitishni modernizatsiyalash, rassom-pedagog bo'ladigan mutaxassislar tayyorlash tizimidagi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ularni sohaga doir zamonaviy kasbiy bilim, tajriba va maslahatlar, amaliy tavsiya bilan boyitish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Bunda badiiy ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash; oliy ta'limda tasviriy san'at o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o'qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy ta'limning axborot resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish; tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish oliy ta'lim muassasalarida rassom-pedagoga faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki oliy ta'lim tizimini xususan, tasviriy san'at ta'lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern — yangilangan, zamonaviy) o'quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Shunday ekan, tasviriy san'at ta'limga innovatsion (inglizcha innovation — yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo'nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi. Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san'at o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi. Bu esa o'z navbatida tasviriy san'at o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza (muammoli ma'ruza, ma'ruza-seminar, virtualtexnologik ma'ruza, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, kirish ma'ruzasi, ma'ruza-konferensiya, axborotli ma'ruza, ma'ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma'ruza, online ma'ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferentsiyalar, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari,

portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi. Oliy ta'lim muassasalaridagi tasviriy san'at o'quv jarayoniga, xususan Dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya darslariga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati ham o'ziga xos hisoblanadi. Interfaol — so'zi inglizcha so'z bo'lib, «inter» — o'zaro va «act» — harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol — ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. Bunday o'zaro harakat turlariga “talaba — o'qituvchi” va “talaba-talaba”ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatning faol tashkilotchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol o'qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo'lib, interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi o'qitishning ob'ektidan o'zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. O'qitishning interfaol metodlari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko'rib chiqiladi. Interfaol o'qitish talabalardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi.

Tasviriy san'atda inson bilan bog'liq mavzu asosiy o'rinni egallaydi.

Tabiatning eng murakkab va shu bilan bir qatorda eng go'zal mahsuli bo'lgan inson gavdasi ayniqsa, uning portretini tasvirlashga rassomlar qadim-qadimdan izlanib kelganlar. Mamlakatimiz hududidan topilgan eramizdan avvalgi taxminan ikki minginchi yillarga mansub harbiy kishi, ayollarning haykal portetlari fikrimizning yorqin dalili bo'la oladi. Inson portretini tasvirlash eng murakkab jarayon bo'lishiga qaramasdan qadimgi odamlar uning go'zalligini namoyon etishga harakat qilganlar. Ularda portret harakterini tasvirlash uchun malaka yetarli bo'lmasada, peshona, ko'z, lab, burun shakllarini oxshatib ishlashga harakat qilganlar.

Hozirgacha barcha badiiy oliygohlarda bo'lgani kabi, pedagogika instituti va universitetlarida rassom o'qituvchilarini tayyorlashda inson portretini tasvirlashga aloxida o'rin berilgan.

Zamonaviy pedagog- rassom portret ishlash bo'yicha professional malakalarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, inson psixologiyasini o'qiy oladigan, hamda uning yuz tuzilishini tasvirlash orqali ichki dunyosini ko'rsata olishi zarur. Buning uchun esa u ko'plab mashqlar bajarishi, bosh chanog'i tuzilishi va plastik anatomiyasini o'rgangan bo'lishi zarur.

Inson boshining murakkab shakllarini to'g'ri tasvirlay olish narsaning o'ziga qarab haqqoniy rasm chizish mashqlariga asoslangan. Bu esa antik davrga mansub gipsdan yasalgan Dovud bosh bo'laklarini (ko'z, burun, lab, quloq) o'ziga qarab tasvirlash orqali boshning gipsdan yasalgan kesik shakli namunasini chizish, undan keyin esa, Antik davr gips bosh namunalari; Apollon, Venera, Diadumen, Gomer

kabi bosh haykallarini o'ziga qarab tasvirlash mashqlari vositasida amalga oshiriladi.

Tasviriy san'at darslarida portretni o'rgatish usullarini takomillashtirish uchun quyidagi bosqichlarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Mavjud usullarni tahlil qilish. Portret janrini o'qitishning mavjud usullarini ko'rib chiqish kerak. Ularning samaradorligini, afzalliklari o'rganiladi.

2. Pedagogik adabiyotlarni o'rganish. Tasviriy san'atni o'qitishdagi, ayniqsa, portret janrining zamonaviy yo'nalishlari bilan tanishish. Qalamtasvir va rangtasvirni o'qitish metodikasi bo'yicha pedagogik adabiyotlarni o'rganiladi.

3. San'atga oid tarixiy materiallarni o'rganish. Portret san'ati bo'yicha tadqiqotlar olib borish, turli davr va uslubdagi mashhur portret rassomlarining asarlarini kuzatish. Portret janrida qo'llaniladigan badiiy usullarni batafsil ko'rib chiqiladi.

4. Individuallashtirilgan metodikani ishlab chiqish. Har bir talabanning individual ehtiyojlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda uslubiy reja tuziladi va portret janrida rasm chizish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun turli mashqlar va vazifalarni qo'shiladi.

5. Amaliy mashg'ulotlar: Talabalar o'rgangan texnika va uslublarni qo'llashlari mumkin bo'lgan amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish. Ularni turli materiallar va usullardan foydalangan holda modeldan portretlar chizishga taklif qilinadi.

6. Tekshiruv va tuzatish. Talabalar ishini muntazam ravishda muhokama qilish va tahlil qilish. Ularga konstruktiv fikr bildiriladi, xatolar aniqlanadi va badiiy mahoratini rivojlantirishga yordam beriladi.

7. Texnologiyadan foydalanish. O'quv tajribasini boyitish va e'tiborini jalb qilish uchun onlayn darslar, video darsliklar, virtual modellar va boshqalar kabi zamonaviy texnologiya va resurslardan foydalaniladi.

8. Kasbiy rivojlanish. Tasviriy san'at va portretni o'qitishga bag'ishlangan seminarlar, mahorat darslari va boshqa professional tadbirlarda ishtirok etish. Bunda albatta hamkasblar bilan muloqot qilinadi, tajriba va fikr almashadi.

Portretni o'qitish metodikasini takomillashtirish doimiy o'rganish, izlanish va tajribalar olib borishni talab qiladi. Har bir talabanning o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatiga moslashtirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baltayeva Xalima Torabayevna// Tasviriy san'at darslarida natyurmort janrini o'rgatish metodikasini takomillashtirish // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi// Vol.14 №4 (2024) 4- to'plam 85-90.
2. Sultanova G.O., Baltayeva X.T. Xorazm ganch o'ymakorligi san'ati //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – С. 756-761.
3. Балтаева Х. Т. талабаларни эстетик тарбиялаш ва касбий тайёрлашда декоратив-амалий санъатнинг ўрни //Proceedings of International Conference on

- Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 62-65.
4. Балтаева Х. Т. Тасвирий санъат ўқитувчисининг ўқувчилар таълим-тарбиясидаги ўрни //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 66-69.
 5. Jumanazarovna, O. N. (2023). O‘zbekiston tasviriy san’atida tarixiy janrda yaratilgan asarlar orqali talabalarning badiiy tasavvurlarini o‘stirish. *PEDAGOGS* jurnali, 33(2), 137-144.
 6. Ibadullayeva, N. E., Ibadullayev, S. E., & Otaxanova, N. J. (2022). Tasviriy va amaliy san’at bo‘yicha tashkil etiladigan togaraklarda o‘quvchilarni ijodkorlik faoliyatiga yo‘naltirish va to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yishning uslubiy jihatlari. In *Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования* (pp. 65-69).
 7. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Tasviriy san’atning fanlararo aloqalar tizimidagi o‘rni. *Pedagogs Jurnal*, 31(1), 142–148.
 8. Abduvoitovich B. D. Tasviriy san’atda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati //so‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 4. – С. 54-58.
 9. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Steam ta’limini tatbiq etish orqali tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. *O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(18), 187–193. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7843850>
 10. Berdiyev Doston Abduvoitovich 2023. Umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitish muammolari (tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi tarixi). *Scientific Impulse*. 1, 9 (May 2023), 520–527.
 11. Abduvoitovich, B. D. (2024). Tasviriy san’at orqali bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish. *PEDAGOGS*, 51(1), 112-114.